

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY Tajribalar.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH Tajribasi.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....	83
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA BAHOLASH	89
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH	94
Islamova Nargiza Mirzaxidovna	
TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	104
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI	111
Begamov S.X.	
RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....	116
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
HUDUDIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	125
Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi	
SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI.....	129
O'runboyeva Sotima Alisher qizi	
GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR Tajribalari.....	134
Kaydarova Sitara Suranbay qizi	
KORXONALAR QIYMATINI BAHOLASH VA BOZOR BAHOSINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI.....	139
Abduraxmanov Sherzodbek Ravshanovich	
YASHIL IQTISODIYOT: EKOLOGIK BARQARORLIK VA IQTISODIY SAMARADORLIK UYG'UNLIGI.....	145
Jamalidinova Asalxon Saliyevna	
2025-YILDA O'ZBEKISTON UCHUN ENG YAXSHI 10 TA TRANSPORT TEKNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARI	151
Mamasaliyeva Mukaddas Ibadullayevna, Beketov Timur Kazakbayevich	



MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLARI: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TIZIMLAR QIYOSIY TAHLILI	155
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ	163
Хайдарова Ёркиной Аскар кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING FISKAL VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	170
Mamatova Nodira Mirzavaliyevna	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ФОРМИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ МОДЕЛИ ПЕРЕХОДА ТЕПЛИЧНЫХ ХОЗЯЙСТВ ТАШКЕНТСКОЙ АГЛОМЕРАЦИИ НА СОЛНЕЧНЫЕ СИСТЕМЫ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ	178
Срождидинова Зарина Хайриiddиновна, Абдувалиева Зилола Абдуллаевна	
MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	186
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
RIVOJLANISHDA RAQOBAT EMAS, BALKI HAMKORLIKNING USTUVORLIGI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL	190
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
IJTIMOY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI VA "QAMRAB OLINMAGAN O'RTA QATLAM" MUAMMOSI	196
Bafoev Farrux Jo'raqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA EKOLOGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	202
Shanazarova Gulyoraxon Baxtiyarovna	
O'ZBEKISTON STARTAP EKOTIZIMIDA INVESTITSIYA JALB QILISH JARAYONINING INSTITUTSIONAL MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARI	208
Xoliqova Xurshidaxon Xayotjon qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA STARTAP EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	214
Usmanov Gafurjon Shavkatovich	
QURILISHDA ISHLAB CHIQRISH VA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMLARINING RIVOJLANISHI	220
Buriyev Xakim Toshimovich, Usmanov Ilxom Achilovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION MUHITNI TAKOMILLASHTIRISHNING STRATEGIYALARI	225
Xolov Sherali Axrorboyevich	
2010-2024-YILLARDA O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIKNI INVESTITSIYALASHNING EKONOMETRIK TAHLILI	229
Ashurov Shuhratbek Quadrat o'g'li	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY USULLARI	233
Sherbekova Kamola Norbekovna	
AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGI DARAJASI VA UNI BAHOLASHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI	243
Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich	
MARKAZIY BANK KURS SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	249
Saydullayev Nodirbek Narzullaevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH SALOHİYATI VA MUAMMOLARI	258
Raupov Shuxrat Soyibovich	
ЭКОТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	264
Абидова Дилфуза Игамбердиевна, Рахматуллаева Зулайхо Хасан кизи	
DIGITAL ECONOMY AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: BUSINESS CHANGE IN THE REGIONS	270
Abdullayev Muzaffar Abdujabbarovich	



QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASHDA IOT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	273
Mirzaev Dilshod Artikovich	
ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА	279
Касимова Наргиза Сабитджановна	
YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY ASOSLARI VA UNGA ILMIY YONDASHUVLAR.....	284
Ismoyilova Mahliyo Oybek qizi	
BOSHQARUVDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR (OLIIY TA'LIM MISOLIDA).....	289
Karievva Gulnora Abdullayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISHNING AMALDAGI HOLATI VA ASOSIY TENDENSIYALARI.....	295
Qurbonov Odilbek Ro'zmatovich	
O'ZBEKISTONDA SPORT FEDERATSIYALARI VA ASSOTSIATSIYALARINI SAMARALI BOSHQARISH TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'LLARI	302
Umed Farmonkulovich Radjabov	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN IQTISODIY MEKANIZMNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ULARNING AMALIY AHAMIYATI	307
Mullayeva Mexrangiz Axtam qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	313
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Muradova Nazira Raximjanovna	
RAQAMLI MARKETING VA ONLAYN PLATFORMALAR ORQALI EKOTURISTIK MAJMUALARNI OMMALASHTIRISH TRENDI	318
Xolmatova Parvina Asliddin qizi	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MA'MURCHILIGI STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI VA ULARNI YECHIMLAR	323
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
РАЗВИТИЕ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА КАК ФАКТОР РЕГИОНАЛЬНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА.....	327
Бахтиёрров Худайберган Хамдам угли	
MAHALLIY BUDJETLARDA TRANSFERTLARGA QARAMLIK DARAJASINI BAHOLASH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	335
Xudoyqulov Hamidjon Abdullayevich	
QORAQALPOG'ISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNI BOSHQARISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	342
Tajibaev Berdax Asqarbay uli	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION JARAYONLARNI JADALLASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	347
Ashurova Maftuna Ortiq qizi	
STRATEGIC DIRECTIONS FOR INCREASING CAPITAL EFFICIENCY OF COMMERCIAL BANKS: DIGITALIZATION AND RISK MANAGEMENT INTEGRATION	352
Sadullaeva Mokhinur Aziz kizi	
TECHNOLOGY MANAGEMENT AND SME INTERNATIONALIZATION: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW	358
Abduxafizova Madinabonu Mirabbos qizi	
TA'LIM SIFATINI BAHOLASH MEZONLARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI.....	363
Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich	
SMART UNIVERSITET KONSEPSIYASI ASOSIDA REYTING VA RAQOBATBARDOSHLIKNI INTEGRAL BOSHQARISH	371
Xudoyqulov Husen Ahadovich	



BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY VA XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA MOLIVAVIY HISOBOT 1-SHAKLINING QIYOSIY TAHLILI	379
Shodiyev Murodjon Bakirovich	
SUG'URTA BOZORINING RAQAMLI RIVOJLANISHIDA NAZARIY QARASHLAR	384
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA INNOVATSION LOYIHALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	389
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
MAHALLIY BUDJETLAR DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	397
P.SH.Usmonov	
СРАВНИТЕЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МЕТОДОВ ИНВЕСТИЦИОННОГО АНАЛИЗА ДЛЯ ОЦЕНКИ ДОХОДНОСТИ АКЦИЙ УЗБЕКСКИХ ЭМИТЕНТОВ	401
Ирмухамедова Муслима Дилшодовна	
KORXONA VA TASHKILOTLARDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA KORPORATIV MADANIYAT, AXLOQIY-RUHIY VA MA'NAVIY MUHITNING O'RNI	407
Suyunov Dilmurod Xolmurodovich, Qodirov Tuyg'un Uzoqovich	
ELEKTRON PULLARNING MOHIYATI VA ULARNING MILLIY TO'LOV TIZIMIDAGI ROLI	416
Toshniyozov Sherali Kamoliddinovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA UY XO'JALIKLARINING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI KENGAYTIRISH	423
Eshbaeva Shahnoza Faxriddinovna	
APPLICATION OF EXTREME MODELS IN ASSESSING THE ECONOMIC POTENTIAL OF AN ENTERPRISE	428
Musayeva Shoira Azimovna	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XORIJIY TAJRIBA HAMDA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH SAMARADORLIGI	435
Bozorova Ozoda Raximovna	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATI IMIJINI OSHIRISHDAGI MUAMMOLARNI HAL ETISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI: QIYOSIY TAHLIL	439
Bekmurodov Navruz Ergashevich	
TA'LIM XIZMATLARI SOHASIDA YARATILGAN YALPI QO'SHILGAN QIYMAT DINAMIKASI VA UNI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	449
O'rinov Komiljon Kozimovich	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHNING MINTAQAVIY OMILLARI	453
Salomat Norova	
QURILISH MATERIALLARI BOZORI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	459
Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT OPERATSIYALARINI SUG'URTA QILISHNI RIVOJLANTIRISH	465
Xalikov R. B.	
BIZNES JARAYONLAR AUTSORSINGINI OPTIMALLASHTIRISH USULLARI TAHLILI	472
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
DAVLAT MOLIVAVIY BOSHQARUVI SAMARADORLIGINING IJTIMOY ADOLATGA TA'SIRINING PEFA VA CEQ METODOLOGIYALARI ORQALI TAHLILI	477
Zokirjonov Muhammadsodiq Ravshanbek o'g'li	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL QILISHNING XORIJ TAJRIBASI	485
Turmanqulov Norpo'lat Sa'dullayevich	
MINTAQADA IJTIMOY HIMOYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH	491
Saparov Ismat Chorshanbiyevich	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANISHDA EKOLOGIK INNOVATSIYALARNI QO'LLAB-QUVVATLASH YO'NALISHLARI	495
Ismatov Sharofiddin Asatulloevich	



THE ESSENCE OF THE OPTIMAL COST STRATEGY	500
Sodiqov Mirakhror Abbos ugli	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TOG'-KURORT ZONALARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY JIHATLARI (CHORVOQ ERKIN TURISTIK ZONASI MISOLIDA)	504
Shomurodova Shahnoza G'ayratovna	
ICHKI AUDIT SIFATI VA SAMARADORLIGI TUSHUNCHALARINING IQTISODIY MAZMUNI HAMDA ULARNING O'ZARO BOG'LIQLIGI	509
Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISH VA UNI HISOBINI YURITISH.....	517
Abdullayev Abdurauf	
TIJORAT BANKLARINING RISKLARINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	522
Kudaybergenova Guzal Kuanishbayevna	
TIJORAT BANKLARIDA KORRUPSIYAVIY-KOMPLAENS MUAMMOLARI: TAHLIL VA YECHIMLAR	527
Yunusov Baxtiyor Shavkatovich	
MAISHIY XIZMAT KO'RSATISHNING SIFAT NAZORATINI HAMDA TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	532
Meliyev X.T.	
ОЦЕНКА КАЧЕСТВА СЕРВИСА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ НА ОСНОВЕ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО ОПРОСА	541
Усманова Азиза Баходировна	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ORQALI MOLIVAVIY INKLYUZIVLIKNI KENGAYTIRISH.....	545
Azlarova Mushtariybegim Abror qizi	
QURILISH KORXONALARNI BOSHQARISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYALARNING AHAMIYATI	550
Egamon Raxmatillo Mirolimovich, Bobobekov Davron Gafurovich	
FINANCIAL MARKET PARTICIPANTS: A CLASSIFICATION BY ROLE AND RESPONSIBILITY.....	553
Khotamkulova Madina	
ФОРМИРОВАНИЕ «ТУРИСТИЧЕСКОЙ МАХАЛЛИ» КАК ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ В СФЕРЕ ГОСТЕВЫХ ДОМОВ УЗБЕКИСТАНА	559
Иргашева Нигина Салохиддиновна	
BANKLARDA KREDIT GAROVI BILAN ISHLASHNING XORIJ ILG'OR TAJRIBASI VA UNDAN O'ZBEKISTON BANKLARI AMALIYOTIDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	567
Sh. Saidov	
MILLIY UGLEROD SAVDOSI TIZIMINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	573
Islamov Shoxzod Shuxrat o'g'li	
THE NECESSITY OF CREATING A BUSINESS ENVIRONMENT AND ITS ROLE AND SIGNIFICANCE IN THE NATIONAL ECONOMY	582
Amanov Davron Ravshan ugli	
SUV RESURLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLASHTIRISH SAMARADORLIGI	588
Saidov Muhammadali Hakimovich, Mahammatov Hoshim, Esanbekov Diyorbek	
ТРАНСФОРМАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА БАНКОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО И ПРИНЦИПАМИ ESG	595
Насирдинов Шарифджон Изатуллоевич	
ОЦЕНКА ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭЛЕКТРОБУСА.....	600
Мухитдинов Акмал Анварович, Касимов Омил Камалович, Саидов Азамат Илхом угли	
XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA DUKKAKLI DON MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH YO'NALISHLARI (HINDISTON TAJRIBASI MISOLIDA).....	608
Mirsayd Xudaybergenov	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLINING FAROVONLIGI VA DAROMAD MANBALARINI STATISTIK TAHLILI	612
Mamatkulov Baxtiyor Xalmuradovich	



KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	618
Muxamedjanova Maxfuza Baxodir qizi	
MOLIYAVIY AKTIVLARINING IQTISODIY MOHIYATI, MAZMUNI HAMDA KLASSIFIKATSIYASI.....	627
Odiljonova Oybachin Fayzullo qizi	
XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ORQALI MAMLAKATIMIZ LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISH TARTIBI TAHLILI.....	631
Rasulova Dilfuza Valiyevna	
HUDUDNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY SALOHİYATNING O'RNİ	636
Avazbek Xalbekov	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SABZAVOTCHILIK TARMOG'INING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	642
Sobir Xasanov	
IMPACT OF REGIONAL INFRASTRUCTURE AND NATURAL RESOURCE UTILIZATION ON THE DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL TOURISM (A DISTRICT-LEVEL ANALYSIS OF THE SAMARKAND REGION, UZBEKISTAN)	650
Toyirova Shohista Bobobekovna	
INNOVASION IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OMILLARI	657
Talapova Nargiza Baxriddinovna	
BOZOR BEQARORLIGI SHAROITIDA BANK OBRO'SINI STRATEGIK RESURS SIFATIDA BARQARORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	661
Yuldasheva Kamola Qosimjonovna, Ziyaeva Muhtasar Mansurdjanovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT PENSIYA TIZIMINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	667
Pardayev Farrux Muzaffarovich	
RAQAMLI TRANSFORMASIYA SHAROITIDA MENEJERLARNING RAQAMLI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH.....	671
Sharipova Zulfiya Shokirjonovna	
FUQAROLAR ISHTIROKIGA ASOSLANGAN TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISH TIZIMI VA UNING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	677
Shukurova Parizod, Soatova Nodira Boboxonovna	
O'ZBEKISTON QISHLOQ HUDUDLARINING BARQAROR RIVOJLANISH YO'NALISHLARIDA QISHLOQ TURIZMI VA EKOTURIZM – ASOSIY USTUVOR YO'NALISHLARI	682
Abduraxmanova Aqida Fayzulla qizi	
KORXONALARDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNING SHAFFOFLIGINI TA'MINLASHDA BUXGALTERIYA HISOBINING ROLI.....	691
Alimbay Shamshetov	
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARINING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI	694
Saula Ibragimova	
ANALYSIS OF THE STATE OF ELECTRICITY GENERATION BY WIND POWER PLANTS.....	698
Saidov Mash'al Samadovich	
TRANSFORMING TOURISM EDUCATION IN UZBEKISTAN: AN INSTITUTIONAL ANALYSIS OF PERSONNEL TRAINING SYSTEMS.....	706
Abdullakhujaev Abdukodirkhuja, Ochilova Hilola Farmonovna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOTLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	713
Elomonov Dadaxon Ozodullayevich	
MAHALLIY BOSHQARUVDA YETAKCHILIK KONSEPSIYASI ORQALI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH (FARG'ONA VILOYATI MISOLIDA)	718
Siddikov Abdusalom Abdumalikovich	



NEW ECONOMIC PHENOMENA: FINANCING CONSUMPTION AND SAVINGS IN THE TRANSITION TO AN EXPECTATION ECONOMY	724
Isomov Bekmurod Sayfiddinovich	
XIZMAT KO'TSATISH SOHASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK YO'NALISHIDA INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLARNI AMALGA OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI	730
Sh.A.Sultonov	
MINTAQALARNING INVESTITSION SALOHİYATINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY METODOLOGIK YONDASHUVLARI VA ULARNING IJTIMOİY-IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI	737
Qobilov Anvar Eshpo'latovich	
KICHIK VA O'RTA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH	741
Madraimova Marxamat Raximberganovna	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКО-РЕКРЕАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА	748
Усманова Зумрад Исламовна	
TITLE: PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP AS A MECHANISM FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR IN UZBEKISTAN	753
Suxrobbek M. Salayev	
XORAZM VILOYATI TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNI BAHOLASH VA UNI OPTIMALLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	761
Urunov Farrux Shanazarovich	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT AUDITI TIZIMINING STRATEGIK TRANSFORMATSIYASI: INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR VA RAQAMLI MONITORINGNING STRATEGIK AHAMIYATI	765
Turabov Baxodir To'xtamishovich	
TURIZM SOHASIDA BANDLIKNING 2025-2030-YILLARDAGI PROGNOZ PARAMETRLARI	770
N.I. Shermamatova	
BO'SH TURGAN DAVLAT KO'CHMAS MULK OBYEKTLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATLI JIHATLARI (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	776
Sanjarov Zuxriddin Dilshod o'g'li, Astonaqulov Muzaffar Muxsin o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING RESURS BAZASI BARQARORLIGINI TAVSIFLOVCHI KO'RSATKICHLAR	781
Bolibekov Shahboz Baxodir o'g'li	
MOLIYA-KREDIT JARAYONLARI: INVESTITSION FAOLLIKNI TA'MINLASH MEKANIZMI SIFATIDA	787
Madaminov In'omjon Ozodovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI	792
Karimov Islombek Bekpo'lat o'g'li	
OLIY TA'LIMDA ILMIY TADQIQOTLAR VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI SAMARADORLIGI	798
Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich	
XUSUSIY MAKTABLARNING BOSHQARUV TIZIMINI QAROR QABUL TIZIMLARI VA O'RGANUVCHI ANALITIKASI YORDAMIDA YANGILASHNING YO'LLARI	802
Esanova Shohida	
MOLIYA BOZORIDA TIJORAT BANKLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ISLOMIY MOLIYA INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	812
Abduraxmanova Matluba Maxamadaminovna	
KORXONALARDA KREDITOR QARZDORLIKNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	819
Mirzaev Ozod Furkatovich	
ЛЕКСИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ КОМПОНЕНТ ПРОДУКТИВНОЙ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ	824
Киличева Феруза Бешимовна	
MODERN MECHANISMS FOR MONITORING REGIONAL DEVELOPMENT IN THE CONTEXT OF DIGITAL ECONOMY	828
Karimova Shirin Zokhid qizi	



АЛЬТЕРНАТИВНЫЕ МЕТОДЫ КРЕДИТНОГО СКОРИНГА ДЛЯ НАСЕЛЕНИЯ БЕЗ БАНКОВСКОЙ ИСТОРИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	833
Шухратова Мадинабону Икром кизи	
SHAHAR EKOLOGIYASI: SHAHAR EKOTIZIMLARI VA BARQAROR RIVOJLANISH	841
Erkiniva Mukarram Olimjon qizi	
CHAKANA SAVDO XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI KORXONALARDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	845
Abdug'aniyev Oybek Akmaljon o'g'li	
KUZATUV KENGASHI XUSUSIYATLARINING KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA'SIRI: NAZARIY VA KONSEPTUAL YONDASHUV	850
Jumayeva Go'zal Sherxon qizi	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH NATIJALARI NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLIYATINI BOSHQARISHDA MUHIM AMALIY AHAMIYAT	854
Sattorov Firdavs Ziyodullayevich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI	858
Abduholikov Kamoldin Mahammadjonovich	
SANOAT KORXONALARINING HUDUDLAR KESIMIDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI STATISTIK TAHLIL QILISH	862
Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHNING EKOLOGIK JIHATLARI	867
Qodirjonov Adxamjon Muxtorjon o'g'li	
INKLYUZIV TA'LIMNI MOLIALASHTIRISHNING XALQARO MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI	872
Muxamedjanova Dilshodxon Muzaffarovna	
SANOAT KORXONALARIDA "YASHIL" TRANSFORMATSIYA JARAYONINING XUSUSIYATLARI	877
Ismatulloeva Madinabonu Fozil qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI MAHSULOTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	884
Kadirova L.G.	
MAIN DIRECTIONS FOR DEVELOPING SOCIAL ENTREPRENEURSHIP IN THE REGION	887
Nasretdinova Farangis Odilovna	
THE IMPORTANCE OF MARKETING COMMUNICATIONS IN THE SERVICES SECTOR	895
Mamatkulova Shoira Djalolovna	
AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH — ICHKI TALABNI RAG'BATLANTIRISH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH OMILI	900
Mustafoev G'olib Sultonmurodovich, Abruyev Abdumalik Oynazarovich	
BIZNES JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH VA ULARNI QO'LLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	906
Qarshiyeva Moxinur Olim qizi	
KORXONADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI JORIY ETISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	911
Salimova Husniya Rustamovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI: BUXORO VILOYATI MISOLIDA	918
Zayavitdinova Nafisa Muxammadovna	
XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI MOLIVAVIY MAHSULOTLARI VA ULARNING O'ZBEKISTON IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI ROLI	926
Rasulova Dilfuza Valiyevna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA IQTISODIY O'SISH VA MEHNAT BOZORI KO'RSATKICHLARINING DINAMIKASI	932
Qodirov Asliddinxo'ja Mahammadjon o'g'li	
FOYDALANUVCHI SADOQATINI SHAKLLANTIRISHNING MARKETING VA NEYROMARKETING MEXANIZMI SIFATIDA GEYMIKATSIYA ELEMENTLARINI QO'LLASH: DODO PIZZA MOBIL ILOVASI MISOLIDA EMPIRIK TAHLIL	937
Yuldashev Jamshid Abrarovich, Daminova Nilufar Bahrom qizi	



KORXONADA XODIMLARNI BOSHQARISHNING TASHKILY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH	945
Sadriddinova Sevinchxon Sadriddin qizi	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA XODIMLAR MOTIVATSIYASI VA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	948
Murodova Zilola Asatulla qizi	
KUZATILMAYDIGAN IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, SHAKLLARI, TURLARI VA YUZAGA KELISH OMILLARI.....	952
Abdullayev Shavkat Nasriddinovich	
NODAVLAT OLIY TA'LIM TASHKIOTLARIDA XARAJATLAR SMETASI VA SHTATLAR JADVALINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	959
Yaqubova Nodira Olim qizi	
РАЗВИТИЕ, РИСКИ, ОБЕСПЕЧЕНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	964
Бабаджанова Лола Шопулатовна, Срожиддинова Зарина Хайриддиновна	
KOMPAINIYALARNING FOND BOZORIDAGI ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRISH AHAMIYATI.....	970
Mamataliyev Bobur Saidnazar o'g'li	
GLOBALASHUV SHAROITIDA INTELLEKTUAL TA'MINOT ZANJIRI TEXNOLOGIYALARINING XALQARO TADBIRKORLIKDAGI O'RNI	977
Xudayberdiyev Otabek Absalomovich	
HUDUD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING INSTITUTIONAL SALOHİYATI: NAZARIY TALQIN VA YAPONIYA, GERMANIYA, XITOIY TAJRIBASI	983
Bekchanov Davron Masharipovich	



HUDUD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING INSTITUTSIONAL SALOHIIYATI: NAZARIY TALQIN VA YAPONIYA, GERMANIYA, XITOIY TAJRIBASI

Bekchanov Davron Masharipovich

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi
dotsent, PhD

ORCID: 0000-0002-1969-3674

E-mail: davronmb@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada hudud iqtisodiyotini rivojlantirishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining institutsional salohiyati nazariy va qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. Yaponiya, Germaniya va Xitoy tajribasi asosida mahalliy organlarning huquqiy avtonomiyasi, moliyaviy mustaqilligi, ma'muriy salohiyati hamda iqtisodiy jarayonlarni muvofiqlashtirish imkoniyatlari o'rganilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mahalliy hokimiyatning institutsional salohiyati investitsiya muhitini yaxshilash, infratuzilmani rivojlantirish va hududiy raqobatbardoshlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekistonda mahalliy organlarning iqtisodiy vakolatlarni kengaytirish, moliyaviy bazasini mustahkamlash hamda natijaga yo'naltirilgan boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: hudud iqtisodiyoti, mahalliy davlat hokimiyati, institutsional salohiyat, nomarkazlashtirish, hududiy rivojlanish.

Abstract. This article analyzes the institutional capacity of local government authorities in the development of regional economies from both theoretical and comparative perspectives. Based on the experiences of Japan, Germany, and China, the study examines the legal autonomy, financial independence, administrative capacity, and the ability of local authorities to coordinate economic processes. The results of the analysis demonstrate that the institutional capacity of local governments is a key factor in improving the investment climate, developing infrastructure, and enhancing regional competitiveness. Furthermore, the study substantiates the necessity of expanding the economic powers of local authorities in Uzbekistan, strengthening their financial base, and developing result-oriented governance mechanisms.

Key words: regional economy, local government, institutional capacity, decentralization, regional development.

Аннотация. В статье проведён теоретический и сравнительный анализ институционального потенциала органов местной государственной власти в развитии региональной экономики. На основе опыта Японии, Германии и Китая исследованы правовая автономия, финансовая самостоятельность, административный потенциал и возможности координации экономических процессов на местном уровне. Результаты анализа показывают, что институциональный потенциал местных органов власти является важным фактором улучшения инвестиционного климата, развития инфраструктуры и повышения региональной конкурентоспособности. Кроме того, обоснована необходимость расширения экономических полномочий местных органов власти в Узбекистане, укрепления их финансовой базы и развития механизмов управления, ориентированных на результат.

Ключевые слова: региональная экономика, местная государственная власть, институциональный потенциал, децентрализация, региональное развитие.



KIRISH

Hudud iqtisodiyotini rivojlantirish masalasi zamonaviy davlat boshqaruvida markaziy o'rin egallaydi, chunki milliy iqtisodiy o'sishning sifati va barqarorligi amalda hududlar darajasida shakllanadi. Bir xil makroiqtisodiy siyosat sharoitida ayrim hududlarning tezroq rivojlanishi, boshqalarida esa iqtisodiy faollikning nisbatan past darajada qolishi ko'p jihatdan mahalliy davlat hokimiyati organlarining institutsional salohiyati bilan izohlanadi.

Mazkur salohiyat nafaqat ma'muriy apparat mavjudligini, balki qonuniy asosda mustahkamlangan vakolatlar, barqaror moliyaviy manbalar, strategiya ishlab chiqish qobiliyati, loyihalarni samarali amalga oshirish tizimi hamda biznes va jamoatchilik bilan hamkorlik darajasini ham o'z ichiga oladi [1, 7]. OECD ma'lumotlariga ko'ra, submilliy hukumatlar OECD mamlakatlarida o'rtacha umumiy davlat xarajatlarining qariyb 40 foizini hamda davlat investitsiyalarining 55–57 foizini amalga oshiradi. Bu esa hududiy rivojlanishda mahalliy institutlarning roli nihoyatda muhim ekanligini tasdiqlaydi [7].

Shu nuqtayi nazardan, hududiy iqtisodiy siyosat samaradorligini faqat moliyaviy qo'llab-quvvatlash hajmi yoki investitsiya miqdori bilan emas, balki ushbu resurslarni real iqtisodiy natijalarga aylantira oladigan institutsional muhit orqali baholash maqsadga muvofiqdir. Ya'ni masalaning mohiyati "hududda qancha resurs mavjud?" degan savolda emas, balki "ushbu resurslardan qay darajada samarali foydalanib, iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin?" degan yondashuvda namoyon bo'ladi.

Shu bois, mazkur maqolada mahalliy davlat hokimiyati organlarining institutsional salohiyati Yaponiya, Germaniya va Xitoy tajribasi misolida qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Ushbu davlatlar hududiy boshqaruvning turli, biroq samaradorligi bilan ajralib turadigan modellari orqali ilmiy-amaliy jihatdan muhim tajriba manbai hisoblanadi [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Institutsional iqtisodiyot nazariyasiga ko'ra, iqtisodiy rivojlanishda institutlar "o'yin qoidalari" sifatida resurslar taqsimoti, tranzaksion xarajatlar, ishtirokchilar o'rtasidagi ishonch hamda qaror qabul qilish sifatini belgilaydi. D. Nort yondashuvi nuqtayi nazaridan, mahalliy davlat hokimiyati organlarining institutsional salohiyati hududda iqtisodiy faollikni rag'batlantiruvchi yoki aksincha, cheklovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi [1]. Bunda institutsional salohiyatni kamida to'rtta asosiy yo'nalishda baholash maqsadga muvofiq: huquqiy avtonomiya, moliyaviy mustaqillik, ma'muriy-kadrlar salohiyati hamda ko'p subyektli muvofiqlashtirish mexanizmlari. Aynan ushbu komponentlar hududning investitsiyaviy jozibadorligi, infratuzilmaviy tayyorgarligi va tadbirkorlik ekotizimiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [3].

Mahalliy institutsional salohiyatning iqtisodiy ta'siri ko'pincha bevosita emas, balki bilvosita mexanizmlar orqali namoyon bo'ladi. Yuqori darajadagi mahalliy boshqaruv yer ajratish, ruxsat berish, infratuzilmaga ulash, kadrlar tayyorlash, loyihalarni muvofiqlashtirish hamda xususiy investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Aksincha, institutsional imkoniyatlar yetarli darajada rivojlanmagan holatlarda ma'lumot nomutanosibligi, funksiyalarning takrorlanishi, boshqaruv jarayonlaridagi ortiqcha kechikishlar hamda investitsiyaviy xavflarning ortishi kuzatiladi. Shu bois hudud iqtisodiyotini rivojlantirishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining institutsional salohiyatini mustaqil tahlil obyekti sifatida ko'rib chiqish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda institutsional iqtisodiyot, nomarkazlashtirish hamda ko'p bosqichli boshqaruv nazariyalari asosida qiyosiy-huquqiy, qiyosiy-institutsional va manbalar tahlili usullaridan foydalanildi. Yaponiya, Germaniya va Xitoy misolida mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqiy avtonomiyasi, moliyaviy mustaqilligi, ma'muriy salohiyati hamda iqtisodiy jarayonlarni muvofiqlashtirish mexanizmlari chuqur o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlar bilan bir qatorda CLAIR, BMWK, World Bank va OECD kabi nufuzli xalqaro va milliy institutlarning rasmiy materiallari tahlil qilindi [1–7].

TAHLIL VA NATIJALAR

Yaponiya tajribasi mahalliy institutsional salohiyatni kuchaytirishning eng muhim sharti huquqiy va funksional aniqlik ekanini ko'rsatadi. Yaponiyada 1947-yildagi Local Autonomy Law mahalliy boshqaruv tizimining fundamental huquqiy asosini yaratgan bo'lsa, 1990-yillar oxiri va 2000-yillar boshidagi nomarkazlashtirish islohotlari markaz va mahalliy daraja o'rtasidagi munosabatlarni iyerarxik emas, balki hamkorlikka asoslangan shaklga olib keldi [2].

Islohotlar natijasida markaziy organlar tomonidan mahalliy darajaga yuklatilgan qator funksiyalar qayta ko'rib chiqildi, mahalliy qaror qabul qilish doirasi kengaydi hamda munitsipalitet va prefekturalar iqtisodiy



rivojlanish, shaharsozlik, xizmat ko'rsatish va tashqi aloqalar sohasida faolroq institutsional subyektga aylandi [3].

Yaponiya modelining ustun jihati shundaki, unda institutsional salohiyat faqat vakolat berish bilan cheklanmagan, balki funksiyalarni oqilona taqsimlash, mahalliy kadrlar salohiyatini rivojlantirish va samarali koordinatsiya mexanizmlari bilan mustahkamlangan. Bu mahalliy hokimiyat organlariga hududiy strategiyalar ishlab chiqish, mahalliy brendlar va klasterlarni rivojlantirish, tashqi investitsiyalar hamda turizmni rag'batlantirish imkonini beradi [3].

Biroq CLAIR materiallarida ta'kidlanganidek, keyingi bosqichda asosiy masala vakolat emas, balki ushbu vakolatlarni amalga oshirish uchun zarur moliyaviy resurslarning barqarorligini ta'minlash bo'lgan [2]. Demak, Yaponiya tajribasidan kelib chiqadigan asosiy xulosa shuki, mahalliy institutsional salohiyatning samaradorligi huquqiy avtonomiya va moliyaviy imkoniyatlar uyg'unlashganda to'liq namoyon bo'ladi [7].

Germaniya tajribasi mahalliy va mintaqaviy institutsional salohiyatni mustahkamlashda ko'p bosqichli boshqaruv hamda qo'shma moliyalashtirish mexanizmlarining muhimligini namoyon etadi. BMWK ma'lumotlariga ko'ra, Germaniyaning asosiy hududiy siyosat instrumenti bo'lgan GRW ("Hududiy iqtisodiy tuzilmalarni yaxshilash bo'yicha qo'shma vazifa") federatsiya va yerlar o'rtasidagi hamkorlik asosida amalga oshiriladi. Uning asosiy maqsadi strukturaviy jihatdan zaif hududlarda investitsiyalarni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va infratuzilmani rivojlantirishdan iborat [4].

Mazkur tizim mahalliy institutsional salohiyatni faqat avtonomiya orqali emas, balki natijaga yo'naltirilgan hamkorlik mexanizmlari orqali ham kuchaytirish mumkinligini ko'rsatadi. Germaniya modelining muhim jihati shundaki, u hududiy rivojlanishni bir vaqtning o'zida nomarkazlashgan va tartibli tarzda tashkil etadi.

Federal daraja umumiy qoidalar va moliyaviy rag'batlarni belgilaydi, yerlar va mahalliy organlar esa loyihalarni hudud ehtiyojlaridan kelib chiqib tanlaydi va amalga oshiradi. Natijada institutsional salohiyat vakolat mavjudligi bilan emas, balki loyiha tayyorlash, hamkorlik asosida moliyalashtirish, monitoring va natijadorlikni baholash qobiliyati bilan belgilanadi [5].

BMWK baholashlariga ko'ra, GRW dasturining asosiy natijasi barqaror ish o'rinlari yaratish va hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishdan iborat [4]. Shu jihatdan Germaniya modeli O'zbekiston uchun markaz-hudud munosabatlarida qo'shma dasturlar va KPIga asoslangan boshqaruv tizimini rivojlantirish nuqtayi nazaridan dolzarb ahamiyatga ega [5].

Xitoy tajribasi mahalliy davlat tuzilmalarining iqtisodiy o'sishda faol va tashabbuskor rol o'ynashi bilan ajralib turadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 1978-yildan keyingi islohotlar jarayonida maxsus iqtisodiy zonalar va sanoat klasterlari yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlovchi muhim omil bo'lib xizmat qilgan [6].

Mazkur jarayonda mahalliy hukumatlar yer ajratish, infratuzilma yaratish, investorlar uchun qulay ma'muriy sharoitlar tashkil etish, eksportga yo'naltirilgan logistika tizimlarini rivojlantirish va ishlab chiqarishni joylashtirishda faol ishtirok etgan [6].

Demak, Xitoy modelida institutsional salohiyat markazdan berilgan formal vakolatlardan ko'ra, mahalliy tashabbus, tezkor qaror qabul qilish va eksperimental boshqaruv mexanizmlari orqali namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, Xitoy tajribasi muayyan ehtiyotkorlikni ham talab etadi. Jahon banki tadqiqotlarida qayd etilishicha, maxsus iqtisodiy zonalar iqtisodiy o'sish, eksport, bandlik va texnologik rivojlanishda muhim rol o'ynagan bo'lsa-da, ayrim holatlarda mahalliy organlarning investitsiya hajmini orttirishga haddan tashqari yo'naltirilishiga ham olib kelgan [6].

Shu bois Xitoy tajribasidan olinadigan asosiy xulosa shuki, mahalliy tashabbus muhim omil bo'lsa-da, u samaradorlik indikatorlari, hisobdorlik va bozor mexanizmlari bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilishi lozim. O'zbekiston uchun bu tajriba eksperimental hududlar, sanoat zonalar va tezkor investitsiya boshqaruvi tizimlarini joriy etishda foydali, biroq kuchli monitoring va natijadorlik baholash mexanizmlari bilan birga qo'llanishi zarur [6].

Yaponiya, Germaniya va Xitoy tajribalarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, mahalliy davlat hokimiyati organlarining institutsional salohiyati turli siyosiy va iqtisodiy modellarda turlicha shakllansa-da, uning asosiy funksiyasi bir xil — hududiy rivojlanishni tashkil etish, muvofiqlashtirish va jadallashtirishdan iborat.

Yaponiyada institutsional kuch huquqiy aniqlik va funksiyalarning mantiqiy taqsimoti orqali, Germaniyada ko'p bosqichli hamkorlik va dasturiy qo'llab-quvvatlash orqali, Xitoyda esa mahalliy tashabbus va eksperimental boshqaruv mexanizmlari orqali shakllangan [2–6].

Mahalliy organlarga faqat formal vakolat berish yetarli emas. Iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun vakolatlarni, moliyaviy resurslar, kadrlar salohiyati va koordinatsiya mexanizmlari yagona tizim sifatida uyg'unlashgan holda faoliyat yuritishi zarur [2–7].

1-jadval. Yaponiya, Germaniya va Xitoyda mahalliy institutsional salohiyatning qiyosiy xususiyatlari¹

Mezon	Yaponiya	Germaniya	Xitoy
Huquqiy avtonomiya	Yuqori, mahalliy avtonomiya qonuniy asoslangan	Yuqori, federal–yerlar tizimida aniq taqsimlangan	O'rtacha, formal avtonomiyadan ko'ra amaliy tashabbus kuchli
Moliyaviy mustaqillik	O'rtacha, resurslar masalasi islohotlardan keyin ham dolzarb	Yuqori, qo'shma moliyalashtirish va barqaror dasturlar mavjud	O'rtacha–yuqori, loyiha va zonalar orqali resurs safarbarligi kuchli
Ma'muriy salohiyat	Yuqori, funksiyalar aniq va institutlar barqaror	Yuqori, loyiha boshqaruvi va monitoring tizimi rivojlangan	O'rtacha–yuqori, tezkorlik kuchli, ammo sifat darajasi hududlar kesimida farqlanadi
Investitsiya jalb qilishdagi roli	Faol, hududiy brending va xizmatlar orqali	Faol, GRW va infratuzilma dasturlari orqali	Juda faol, maxsus iqtisodiy zonalar va sanoat parklari orqali
Koordinatsiya modeli	Markaz–mahalliy hamkorlik modeli	Ko'p bosqichli kooperativ federalizm	Mahalliy tashabbus va markaziy strategik yo'naltirish uyg'unligi
Asosiy risk	Moliyaviy resurslar cheklanganligi	Ma'muriy murakkablik va ko'p bosqichlilik	Ortiqcha investitsiya va samaradorlikning pasayish xavfi

Qiyosiy tahlildan kelib chiqib, O'zbekiston uchun kamida to'rtta muhim yo'nalishni ajratish mumkin. Birinchidan, Yaponiya tajribasi asosida mahalliy davlat hokimiyati organlarining iqtisodiy sohadagi funksiyalarini aniq huquqiy chegaralash zarur. Ikkinchidan, Germaniya tajribasiga o'xshash tarzda markaziy organlar va hududlar o'rtasida qo'shma moliyalashtirishga asoslangan hamda natija indikatorlari orqali baholanadigan dasturiy mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, Xitoy tajribasidan kelib chiqib, eksperimental industrial hududlar, investitsiyalarni tezkor kuzatish tizimlari va mahalliy tashabbuslarni rag'batlantiruvchi instrumentlarni rivojlantirish mumkin. To'rtinchidan, OECD yondashuvi nuqtayi nazaridan mahalliy darajada davlat investitsiyalarini boshqarish sifatini oshirish uchun samarali koordinatsiya mexanizmlarini rivojlantirish, ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish tizimini joriy etish hamda kadrlar salohiyatini kuchaytirish ustuvor vazifaga aylanishi lozim [7].

O'zbekiston sharoitida institutsional salohiyatni kuchaytirish faqat hokimlik apparatini kengaytirish bilan cheklanmaydi. Bu, eng avvalo, hokimliklar huzurida iqtisodiy tahlil, investitsiya boshqaruvi, sanoat siyosati, loyiha menejmenti va davlat-xususiy sheriklik yo'nalishlarida professional funksional bloklarni shakllantirishni anglatadi. Shuningdek, hududiy rivojlanish strategiyalarini aniq KPI ko'rsatkichlari, samarali monitoring va hisobdorlik tizimi bilan integratsiyalash, mahalliy budjet resurslarini esa natijaga yo'naltirilgan dasturlar asosida taqsimlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shundagina mahalliy davlat hokimiyati organlari hudud iqtisodiyotini ma'muriy boshqaruvdan institutsional-strategik boshqaruv darajasiga olib chiqadigan samarali subyektga aylanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hudud iqtisodiyotini rivojlantirishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining institutsional salohiyati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mazkur salohiyat hududiy iqtisodiy jarayonlarning samaradorligini belgilovchi bazaviy omil bo'lib, investitsiya muhiti, infratuzilma sifati, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash darajasi hamda hududiy raqobatbardoshlikka bilvosita, ammo kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, Yaponiya tajribasi huquqiy avtonomiya va funksional aniqlikning, Germaniya tajribasi ko'p bosqichli kooperativ boshqaruvning, Xitoy tajribasi esa mahalliy tashabbus va eksperimental rivojlanish institutlarining muhimligini yaqqol namoyon etadi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlarining institutsional salohiyatini oshirish hududiy iqtisodiy siyosatning ustuvor va markaziy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. North, D. C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. — Cambridge: Cambridge University Press, 1990. — 152 p. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511808678>
2. Ikawa, H. 15 Years of Decentralization Reform in Japan // Up-to-date Documents on Local Autonomy in Japan. — Tokyo: CLAIR, 2008. — 12 p. https://www.clair.or.jp/j/forum/pub/docs/up-to-date_en1.pdf
3. Local Government in Japan. — Tokyo: Council of Local Authorities for International Relations (CLAIR), 2020. — 92 p. https://www.clair.or.jp/e/pub/docs/lgi_j_2020_en.pdf

¹ Muallif ishlanmasi



4. Framework for the Coordination of the Joint Federal/Länder Task for the Improvement of Regional Economic Structures (GRW) from 1 January 2024. — Berlin: Federal Ministry for Economic Affairs and Climate Action (BMWK), 2024. <https://www.bmwk.de/Redaktion/EN/Publikationen/Regionalpolitik/grw-framework.html>
5. Boosting the Regional Economy: Regional Policy in Germany. — Berlin: Federal Ministry for Economic Affairs and Climate Action (BMWK). <https://www.bmwk.de/Redaktion/EN/Dossier/regional-policy.html>
6. Zeng, D. Z. How Do Special Economic Zones and Industrial Clusters Drive China's Rapid Development? // Policy Research Working Paper No. 5583. — Washington, DC: World Bank, 2011. — 39 p. <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/164571468023889012>
7. OECD. Subnational Finance and Investment. — Paris: OECD Publishing, 2025. <https://www.oecd.org/regional/regional-policy/subnational-finance.htm>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
